



O'ZBEKISTON PREZIDENTI YAPONIYAGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 18-dekabr kuni rasmiy tashrif bilan
Tokio shahriga keldi.

“Xaneda” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Yaponiya ichki ishlar va kommunikatsiyalar vaziri Yoshimasa Kayashi va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tokio shahriga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyev Yaponiyada mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashib, ular bilan suhbatlashdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yurtdoshlarimizning orzu-umidlari, maqsad va rejalarini haqida ochiq va samimiy muloqot bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz vatandoshlarimizga ishi va o'qishida muvaffaqiyatlar tilab, ular kunchiqar

yurtda o'rttirgan bilim va tajribalar Vatanimiz taraqqiyoti hamda xalqimiz farovonligiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 19-20-dekabr kunlari bo'lib o'tadi. O'zbekiston Prezidenti Yaponiya Imperatori Naruxito, Bosh vaziri Sanae Takaichi va boshqa rasmiylar, ishbiarmon doiralari hamda akademik jamaiyat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazadi.

Shuningdek, O'zbekiston yetakchisi “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida ishtirok etadi.

O'ZA

Kenji HIRATA:

“YAPONIYA – O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI YUQORI BOSQICHGA CHIQMOQDA”

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi va “Markaziy Osiyo+Yaponiya” formatidagi birinchi sammitdagi ishtiroki arafasida ushbu mamlakatning O'zbekistondagi elchisi Kenji Hirata “Dunyo” AA muxbiriga intervyu berib, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashinuvlar, “C5+” formatining ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdi.



— Yaponiya O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, bir so'z bilan aytganda, barcha sohalaridagi muhim hamkorlaridan hisoblanadi, shunday emasmi? Sizningcha, ikki davlat hamkorligini yanada kengaytirish va yangi darajaga olib chiqishda qaysi yo'nalishlar eng istiqbolli?

— O'zbekiston Prezidenti Mirziyoyev Janobi Oliylarining Yaponiyaga tashrifi arafasida menga intervyu berish imkoniyati

yaratilganidan mamnunman. Ta'kidlashim kerak, O'zbekiston Yaponiya uchun muhim hamkor bo'lgani sababli bu tashrif strategik sherikligimizda muhim qadam bo'ladi. Yaponiya — O'zbekiston strategik hamkorligi hozirda yangi bosqichga o'tmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ikki davlat hukumatlari o'rtasida qator hamkorlik dasturlari yo'lga qo'yilgan.

[Davomi 2-betda](#)

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O'ZBEKISTON

SHONLI TARIXNING OLAMSHUMUL NATIJALAR QO'SHILGAN NAVBATDAGI SAHIFASI



Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi O'zbekiston tamoyilining keng joriy etilishi xalqimiz yuragiga intiluvchanlik, orzumandlik tuyg'ularini jo etdi. Bu, o'z navbatida, g'ururimizni yuksaltiradigan muvaffaqiyatlar salmog'ining yildan yilga ortishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, 2025-yilda sport sohasida qo'lga kiritilgan natijalar Vatanimizning xalqaro maydondagi obro'si yuksalishi, salomatlik harakati keng yoyilishida muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, o'tayotgan yil sport sohasida mazmunan yangi bosqichni boshlab bergan, tarixiy yutuqlar bilan yodda qoladigan davr bo'ldi. Yurtimizda sport maktablari, zamonaviy sport inshootlari faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga chiqib, iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash uchun mustahkam poydevor yaratildi. O'zbek sporti tarixida qayd etilgan natijalar milliy sport maktabining salmoqli salohiyatini namoyon qildi.

Shu bilan birga, bu yil ommaviy sportni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratildi. Aholi, ayniqsa, bolalar va o'smirlar o'rtasida sport bilan muntazam shug'ullanishga qiziqish sezilarli darajada ortdi, jismoniy faoliyat odatiy hayot tarziga aylana boshladi.

Sport vazirligi ma'lumotiga ko'ra, aholini sog'lom turmush tarzi, ommaviy jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish maqsadida

yil davomida o'tkazilgan 82 ming 45 ta sport musobaqasi va tadbirlarida 10 million 400 ming kishi, jumladan, 4 million xotin-qiz ishtirok etgan.

Mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar o'rtasida 5 bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida tashkil etilgan ommaviy sport musobaqalarida ishtirok etish istagidagi 7,3 millionga (shundan 3,4 million nafari qizlar) yaqin yoshlar Stashabbus.uz sayti orqali elektron ro'yxatdan o'tgan. Ularning 6,6 million nafari yoki 78 foizi ommaviy sport musobaqalarida ishtirok etgan. Ma'lumot uchun: 2023-yilda 6,3 million, 2024-yilda 6,5 million o'g'il-qiz ommaviy sport musobaqalarida qatnashgan.

Mazkur sport musobaqalari mahallalarning 16-30 yoshli aholisi o'rtasida 13 ta sport turi — yengil atletika, stol tennis, vorkout, shaxmat,

shaxka, armresting, voleybol, stritbol, kurash, futbol, mini futbol, gandbol, gimnastika bo'yicha 5 bosqichda mart-avgust oylarida tashkil etildi.

Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar xizmat joylari, boshqaruv tizimining turli bo'g'inlarida ham yo'lga qo'yib borildi. Bu sportning kundalik hayotimizdagi ajralmas qismiga aylanishiga xizmat qildi.

Joriy yil aprel-may oylarida “Sog'lom tunda — sifatli ta'lim” shiori ostida “Kasaba uyushmasi kubogi” uchun umumta'lim maktablari xodimlari o'rtasida mini futbol, voleybol, shaxmat, shaxka va stol tennis bo'yicha uch bosqichli ommaviy sport musobaqalari o'tkazildi. Ularda 10 mingdan ziyod maktabda faoliyat yuritayotgan 280 ming xodim ishtirok etdi.

Shuningdek, joriy yilda vazirlik, idora va tashkilotlarning quyi tizimdagi (tuman, shahar) xodimlari uchun alohida musobaqalar o'tkazildi. Sportning 5 turi bo'yicha 2 bosqichli sport musobaqalari iyul-avgust oylarida tashkil etildi. Musobaqalarda idora va tashkilotlarning 28 mingdan ortiq xodimi ishtirok etdi.

Ilgari sport sohasida muammolar qalashib yotar, ularning aksariyati yillar davomida to'planib qolgan, sohaning barqaror rivojiga to'siq bo'lib kelgan masalalar edi. Bugun esa ushbu muammolarga yuzma-yuz qarab, ularni yashirish yoki kechiktirish emas, balki izchil va aniq mexanizmlar orqali bartaraf etish yo'li tanlandi. Natijada boshqaruvdagi parokandalik, infratuzilmadagi yetishmovchilik, kadrlar tayyorlashdagi nuqsonlar va ommaviy sport bilan yuqori natijali sport o'rtasidagi uzilishlar bosqichma-bosqich o'z yechimini topdi.

[Davomi 3-betda](#)



ZAMON BILAN HAMQADAM BO'LISH — RIVOJLANISHNING ENG ASOSIY SHARTI

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida misning ahamiyati keskin oshib, u strategik resurs sifatida oltin bilan tenglashtirila boshlandi. Agar oltin asrlar davomida qiymatni saqlash vositasi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, mis XXI asrda iqtisodiy o'sish, raqamlashtirish va texnologik taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy resursga aylandi.

Zamonaviy iqtisodiyot elektr energiyasi, ma'lumotlar uzatish va avtomatlashtirishga tayanadi. Elektr tarmoqlari, data-markazlar, telekommunikatsiya infratuzilmasi, elektromobillar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari — bularning barchasida mis hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot”ga o'tish va sanoatni elektrifikatsiya qilish misga talabni uzoq muddatli va barqaror o'sish yo'lga olib

chiqdi. Shu bois, bugun mis oddiy xomashyo emas, balki davlatlar va yirik korporatsiyalar uchun strategik aktivga aylanmoqda. U energetik xavfsizlik, sanoat barqarorligi va texnologik mustaqillik bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda.

[Davomi 4-betda](#)



TO'RT FASLDA HAM UZUM ARIMAYDIGAN XONADON

6



ANIQ STATISTIKA SAMARALI STRATEGIYADIR

5

TRANSKASPIY TRANSPORT YO'LAGI

MARKAZIY OSIYO IQTISODIY INTEGRATSIYASI UCHUN KATTA IMKONIYAT

Bugun O'zbekiston va Turkmanistonning transport sohasidagi hamkorligi strategik ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy Osiyo bog'liqligining yangi arxitekturasini shakllantiradi va mintaqaning Yevrosiyo makoniga chiqishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Ikki davlatning Sharq – G'arb va Shimol – Janub asosiy tranzit yo'nalishlari chorrahasida joylashgani logistika, multimodal tashuvlar va raqamli yechimlar sohasidagi qo'shma loyihalarga yuqori talabni belgilaydi.

Prezidentimizning oqilona siyosati tufayli mintaqada yaxshi qo'shnichilik va ishonch muhiti mustahkamlanmoqda, transport jihatidan o'zaro bog'liqlik va integratsiya chuqurlashmoqda. Shu jumladan, Turkmaniston bilan ham hamkorlik har tomonlama jadal rivojlanmoqda. Prezidentimizning shu yil 11-12-dekabr kunlari ushbu davlatga

amaliy tashrifi doirasida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan uchrashuvida qayd etilganidek, yil boshidan buyon tovar ayiriboshlash qariyb bir milliard dollarga yetdi. “Shovot-Toshovuz” chegaradoli savdo zonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

[Davomi 2-betda](#)

Kenji HIRATA:

“YAPONIYA – O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI YUQORI BOSQICHGA CHIQMOQDA”



Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda biz mutlaqo boshqacha O‘zbekistonni ko‘ryapmiz. Yangi O‘zbekiston dunyoga ochiq va xorijiy davlatlar bilan aloqalar orqali modernizatsiyaga erishishga intilmoqda. Bu jarayonda to‘g‘ridan

sohada ikki davlat qanday qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirishi mumkin?

— Bu borada ko‘plab aniq yo‘nalishlar mavjud. Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish yoki energiya samaradorligini oshirish kabi sohalarida hamkorlik qilish imkoniyatlari juda ko‘p. Alohida e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan sohalardan biri iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan qo‘shma kreditlash mexanizmidir. Hozircha biz aniq loyihalarni shakllantirish ustida ishlayapmiz. Yaqin kelajakda bunday loyihalar, albatta, amaliyotga tatbiq etiladi.

Biz Yaponiya texnologiyalari va yashil transformatsiya borasidagi tajribasi O‘zbekiston intilayotgan “yashil iqtisodiyot” rivojiga katta hissa qo‘sha oladi deb hisoblaymiz. Shu bois, har ikki tomon manfaatiga xizmat qiladigan hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida aniq va amaliy loyihalar ishlab chiqilishiga umid qilamiz.

— Suhbatimizning eng muhim qismi, ya’ni kutilayotgan “Markaziy Osiyo va


BUGUN C5 YOKI C6 MAMLAKATLARINING HAMKORLIK QILISHI ODDIY VA TABIIY HOL BO‘LIB QOLDI. AMMO 2004-YILDA YAPONIYA “C5+1” FORMATINI BOSHLAB BERGAN PAYTDA VAZIRIYAT MUTLAQO BOSHQACHA EDI. SHUNDAN BUYON QANCHALIK KATTA YO‘L BOSIB O‘TILGANINI KO‘RISHIMIZ MUMKIN.

to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va savdo muhim rol o‘ynaydi va bu, asosan, xususiy sektor qo‘lidadir. Shu sababli Yaponiya — O‘zbekiston strategik hamkorligining kelajagi, asosan, xususiy sektorga qaratiladi. Albatta, hukumatlar xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilmoqda. Shu bois, hamkorlik sur‘atini saqlab qolish va uni yanada kuchaytirishga intilamiz.

— Siyosiy va iqtisodiy hamkorlikka alohida urg‘u berdingiz. Shu o‘rinda yana bir muhim jihatni tilga olishimiz kerak — bu madaniy diplomatiya, madaniy aloqadorlik va ta’lim sohasidir. Bunga

Yaponiya” muloqotiga to‘xtalsak. Ushbu format g‘oyalari va tashabbuslar almashish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda “Markaziy Osiyo+” formatiikbor Yaponiya bilan boshlanganini alohida ta’kidlash joiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu format doirasida hozirgacha qanday asosiy yutuqlarga erishildi va kelajakda qaysi istiqbolli tashabbuslarni amalga oshirish kutilmoqda?

— “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitining birinchi bosqichi samarali o‘tishiga ishonamiz. Bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyevning yetakchiligi va tashabbusi tufayli boshqa



BIZ YAPONIYA TEXNOLOGIYALARI VA YASHIL TRANSFORMATSIIYA BORASIDAGI TAJRIBASI O‘ZBEKISTON INTILAYOTGAN “YASHIL IQTISODIYOT” RIVOJIGA KATTA HISSA QO‘SHA OLADI DEB HISOBLAYMIZ. SHU BOIS, HAR IKKI TOMON MANFAATIGA XIZMAT QILADIGAN HAMKORLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASH MAQSADIDA ANIQ VA AMALIY LOYIHALAR ISHLAB CHIQILISHIGA UMID QILAMIZ.

xalq diplomatiyasi, yapon tilini o‘qitish, talabalar almashinuvi kabi ko‘plab yo‘nalishlarni misol keltirishimiz mumkin. Sizningcha, ushbu sohada ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarishga nimalar turtki bo‘la oladi?

— Inson resurslarini rivojlantirish doimo munosabatlarni markazida bo‘lib kelgan. Yaponiya hukumati o‘zbekistonlik yoshlar uchun qator stipendiya dasturlarini taqdim etib kelmoqda. Bugungi kunda o‘zbekistonlik 2400 dan ortiq yosh Yaponiyada tahsil olmoqda. Bundan tashqari, Nagoya va Sukuba universitetlari kabi yetakchi oliy ta’lim muassasalari boshchiligidagi universitetlararo almashinuv dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Biz bu yoshlar Yaponiyada o‘qishni tamomlagach, o‘z vatani — O‘zbekistonga qaytib, Yaponiyada orttirgan bilim va tajribalari orqali mamlakat rivoji va modernizatsiyasiga hissa qo‘shishiga umid qilamiz. Menimcha, bu ham o‘zaro hamkorligimizga yanada turtki beradi.

— Yaponiya barqaror innovatsiyalar, energiya samaradorligi va ekologik toza texnologiyalar sohasida global yetakchilardan biri. O‘zbekiston ham “yashil iqtisodiyot” va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilamoqda. Ushbu muhim

Markaziy Osiyo davlatlarining ham ushbu formatga qiziqishi, keng ko‘lamli hamkorlikka intilishi oshmoqda. O‘zaro tashriflar odatiy holga aylandi. Suv resurslarini boshqarish, chegara nazorati, iqlim o‘zgarishi va boshqa masalalar bo‘yicha doimiy muloqotlar kechmoqda.

Bugun C5 yoki C6 mamlakatlarining hamkorlik qilishi oddiy va tabiiy hol bo‘lib qoldi. Ammo 2004-yilda Yaponiya “C5+1” formatini boshlab bergan paytda vaziyat mutlaqo boshqacha edi. Shundan buyon qanchalik katta yo‘l bosib o‘tilganini ko‘rishimiz mumkin. Menimcha, ushbu “C5+1” formatining eng muhim tomoni o‘zaro ishonch va birdamlik muhitini shakllantirganidir. Bu oson ish emas, albatta, u uzoq vaqt talab etadi. Shunga qaramay, Yaponiya bu formatga asos solganidan faxrlanamiz. Bugun esa amaliy jihatdan katta ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rib turibmiz. Shu sababli Yaponiya — Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligi va sherikligini mustahkamlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlarga, eng avvalo, o‘zaro ishonchni mustahkamlash orqali hamroh bo‘lib kelayotganidan juda mamnunmiz.

“Dunyo” AA

Xalqaro hamkorlik

TRANSKASPIY TRANSPORT YO‘LAGI MARKAZIY OSIYO IQTISODIY INTEGRATSIYASI UCHUN KATTA IMKONIYAT



Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida ta’kidlaganidek: “Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi mintaqaviy o‘ziga xosligi vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlarimizni e’tirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, musharak madaniyatini, taqdirlarimiz o‘zaro bog‘liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qo‘shnichilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati — barchaning yutug‘i, degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda”.

O‘zbekiston va Turkmaniston hamkorligi ushbu tendensiyaning yaqqol aks ettiradi: infratuzilma loyihalarini sinxronlashtirishni kuchaytirish va tranzit tartib-taomillarini soddalashtirish orqali mamlakatlar yanada raqobatbardosh va barqaror logistika zanjirlari uchun zamin yaratmoqda.

2025-yilning 9 oyida mamlakatlarimiz o‘rtasida yuk tashish hajmi o‘tgan yilning shu davridagiga nisbatan 30 foiz oshib, 1,3 million tonnani tashkil etdi. Tashuvlarning eng katta ulushi avtomobil transporti hissasiga to‘g‘ri keladi, bu esa uni ikki davlat o‘rtasidagi transport aloqasining asosiy elementlaridan biriga aylantiradi.

Transkaspий transport yo‘lagi va o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha o‘tgan oyda poytaxtimizda o‘tkazilgan investorlar forumi Yevropa Ittifoqi, Qora dengiz bo‘yi va Markaziy Osiyo davlatlari vakillarini bir maydonga to‘plab, o‘zaro hamkorlik va bog‘liqlik kun tartibini ilgari surishga zamin yaratgani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Zero, birinchidan, bugungi kunda Transkaspий yo‘lagi Xitoy, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlarini Yevropa bilan bog‘laydigan asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining baholashicha, 2030-yilga borib O‘rta yo‘lak orqali tashiladigan yuklar hajmi yiliga 10-11 million tonnaga yetadi. Shu bois, O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda ushbu yo‘nalishni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda.

2024-yilda O‘zbekistonning Transkaspий yo‘lagi orqali yuk tashish hajmi barqaror o‘shini namoyish etib, bir million tonnadan oshdi, bu 2019-yildagidan besh barobar ko‘pdir.

Ikkinchidan, forum doirasida transport va logistika bo‘yicha o‘zaro bog‘liqlikning “yumshoq” va “qattiq” jihatlari — me’yoriy-huquqiy bazani uyg‘unlashtirish, infratuzilmaga investitsiyalar va savdo yo‘laklarini raqamlashtirish bo‘yicha tematik sessiyalar o‘tkazildi. Munozaralar davomida qo‘shma muvofiqlashtirish mintaqaviy sheriklikni qanday mustahkamlashi mumkinligi ko‘rib chiqildi. Ishtirokchilar qo‘shma investitsiya loyihalarining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab oldi.

Noyabrda poytaxtimiz mezbonligida o‘tkazilgan yana bir yirik xalqaro anjuman — Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi uchinchi iqtisodiy forumi ham davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni, shu jumladan, transport-logistikani rivojlantirishga zamin yaratganini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Jumladan, mintaqaviy muloqotni mustahkamlash va ayni paytdagi dolzar masalalarga birgalikda yechim ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston va YI hamkorligida tashkil etilgan anjuman yangi ish o‘rinlari yaratish, qo‘shma loyihalar ustida ishlash, barqarorlikni ta’minlash kabi yo‘nalishlar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Forumda 32 mamlakatdan vakillar ishtirok etgani ham mintaqalarimiz o‘rtasidagi hamkorlik har qachongidan yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi.

Forum ahamiyatiga keladigan bo‘lsak, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo hajmi so‘nggi yetti yilda to‘rt barobar oshib, 54 milliard yevroga yetdi. Yevropa Ittifoqi so‘nggi o‘n yilda 100 milliard yevrodan ortiq to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritib, mintaqaning asosiy investori bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan taqdim etilgan GSP va GSP+ rejimlari mintaq

TURKMANISTON HUDUDI ORQALI KASPIY DENGIZIDAGI TURKMANBOSHI VA FORS KO‘RFAZIDAGI BANDAR ABBOS PORTLARIGA BARQAROR LOGISTIKA YO‘LI MAVJUD, BU KAVKAZ, TURKIYA, YEVROPA VA YAQIN SHARQ YO‘NALISHLARIDA MULTIMODAL TASHUVLAR IMKONIYATINI SEZILARLI DARAJADA KENGAYTIRADI.

davlatlariga Yevropa bozoriga barqaror kirish imkonini yaratib, milliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Forumda tomonlar o‘rtasida erishilgan kelishuvlar esa mintaqadagi savdo aloqalarini yanada kengaytirish, iqtisodiy investitsiyalar hajmini oshirish, O‘zbekistonni Sharq va G‘arbi bog‘lovchi strategik tranzit markaziga aylantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Umuman, har ikki forumda erishilgan kelishuvlar mintaqalarimiz o‘rtasidagi hamkorlik rivojini yangi bosqichga olib chiqadi. Hamkorlikdagi yirik loyihalar doirasida barpo etiladigan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, yo‘lga qo‘yiladigan

kelishuvga erishildi. Bu tashuvchilar uchun shaffof va teng sharoitlarni ta’minlaydi, tashish xarajatlarini kamaytiradi, tranzitni soddalashtiradi va avtomobilda tashuvlar samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, ikki tomonlama munosabatlarda alohida o‘rin tutadigan temir yo‘l transporti sohasidagi hamkorlik mustahkamlanmoqda.

Turkmaniston hududi orqali Kaspiy dengizidagi Turkmanboshi va Fors ko‘rfazidagi Bandar Abbos portlariga barqaror logistika yo‘li mavjud, bu Kavkaz, Turkiya, Yevropa va Yaqin Sharq yo‘nalishlarida multimodal tashuvlar imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi.



yangi mexanizmlar iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligiga xizmat qiladi. Muhimi, transport-logistika tizimida yaratilayotgan qulayliklar dengiz yo‘llaridan olisda joylashgan mintaqamiz davlatlari uchun yangi imkoniyatdir.

— Bu yo‘nalishda O‘zbekiston va Turkmanistonning transport sohasidagi hamkorligi strategik ahamiyat kasb etadi, —

Temir yo‘l ma’muriyatlarining birgalikdagi ishlari tutashev stansiyalarining o‘tkazuvchanlik quvvatini oshirish, tarif yechimlarini optimallashtirish va konteyner xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu tashuvlar tezligi va barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan tarif siyosati



deydi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o‘rganish markazi boshqarma boshlig‘i Dildora Ibragimova. — Chunki Turkmaniston hududi orqali o‘tadigan yo‘nalishlar O‘zbekistonga Kaspiy dengizi, Yaqin Sharq va Eronga chiqish imkonini beradi, bu esa ularni tashqi savdoni diversifikatsiyalash uchun asosiy yo‘nalishga aylantiradi. O‘tkazish punktlarini modernizatsiyalash, jarayonlarni optimallashtirish va raqamli vositalarni joriy etish tufayli avtotransportda tashish hajmi barqaror o‘shini ko‘rsatmoqda. 2024-yil dekabr oyida Farap avtomobil yo‘llari

tranzitni rag‘batlantirishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Turkmaniston va O‘zbekiston orqali tashiladigan yuklar turi va harakatlanish yo‘nalishiga qarab 50 foizgacha chegirmalar taqdim etilmoqda. Bu tranzitning barqarorligiga yordam beradi va tashuvchilar uchun ishonchli shart-sharoitlarni shakllantiradi.

Multimodal zanjirlarni rivojlantirishda Turkmanboshining dengiz infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Zamonaviylashtirilgan xalqaro port Transkaspий aloqasining asosiy tugunlaridan biriga aylandi.

Hamkorlikni kengaytirish maqsadida

2025-yil avgust oyida Turkmanboshi shahrida O‘zbekiston Transport vazirligi va Turkmaniston Davlat dengiz va daryo transporti xizmati o‘rtasida kemasozlik sohasidagi hamkorlikni nazarda tutuvchi anglashuv memorandumi imzolandi.

Shu bilan birga, yo‘nalishlarning barcha ishtirokchilari uchun tranzit o‘shini ta’minlaydigan xalqaro transport yo‘laklari jadal sur‘atda rivojlanmoqda.

Masalan, ulardan biri O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya va Turkiyani birlashtirgan, 2019-yildan buyon faoliyat yuritayotgan “KASKA+” yo‘nalishidir. Olti yil ichida uni rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi, yuk tashish uchun 70 foizgacha tarif imtiyozlari joriy etildi va operatorlarga qulay shart-sharoitlar yaratildi. Natijada 2024-yilda O‘zbekistonning ushbu yo‘nalish bo‘yicha eksport va import yuklari hajmi 1 million tonnani tashkil etdi.

Mazkur yo‘lakni rivojlantirish uchun Turkmanboshi porti orqali uluksez yuk tashishni ta’minlash, bandargohlarni chuqurlashtirish va paromlar sonini ko‘paytirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhimdir.

O‘zbekiston, Turkmaniston, Eron va Turkiya orqali muqobil yo‘nalishni rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda. Jumladan, 2023-yil noyabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan IHT vazirlari yig‘ilishi doirasida to‘rt davlat o‘rtasida O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya xalqaro multimodal yo‘lagini shakllantirish bo‘yicha transport sohasidagi regisli vazirliklarning ko‘p tomonlama uchrashuvi bayonnomasi imzolandi.

Uning amalga oshirilishi Osiyo — Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarini O‘zbekiston, Turkmaniston, Eron va Turkiya hududlari orqali Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan bog‘lash imkonini beradi, bu esa yangi barqaror logistika yo‘lagini yaratadi.

Yo‘lakni rivojlantirish uchun O‘zbekiston, Turkmaniston, Eron va Turkiya temir yo‘llari orqali yuk tashish narxlarini raqobatbardosh qilish va qulay sharoitlar yaratish, me’yoriy-huquqiy va texnik standartlarni birxillashtirish, ishtirokchi davlatlarning transport aloqalarini kuchaytirish bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlash muhimdir.

Aviatsiya hamkorligi sohasida 2025-yil 22-avgust kuni Turkmanboshi shahrida O‘zbekiston Transport vazirligi va “Turkmaniston havo yo‘llari” o‘rtasida fuqaro aviatsiyasida hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida protokol imzolandi, unda mamlakatlar o‘rtasida muntazam aviaqatnovlarni qayta tiklashni tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Tashishlar hajmi ortishi, yo‘nalishlar diversifikatsiyalashuvi va texnologik hamkorlik darajasi yuksalishi O‘zbekiston va Turkmaniston mintaqaviy infratuzilmaning bir-birini to‘ldiruvchi elementlari sifatida maydonga chiqayotgan Markaziy Osiyoning yangi logistika makonini yaratmoqda.

Transport yo‘laklarini modernizatsiyalash, jarayonlarni raqamlashtirish va yuk egalari uchun qulay shart-sharoit barpo etish bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlar uzoq

muddatli rivojlanish uchun mustahkam poydevordir.

Kelgusida O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish mintaqaning Yevroosiyo transport tarmog‘iga transport jihatidan integratsiyalashuvi, yo‘nalishlar raqobatbardoshligini kuchaytirish, yangi logistika muqobilarni yaratish va Markaziy Osiyoni qit‘aning asosiy tranzit markaziga aylantirishda muhim omil bo‘ladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yil sarhisobi

f yuz.uznews



yuz.uz_news



yuz.uz

SHONLI TARIXNING OLAMSHUMUL NATIJALAR QO‘SHILGAN NAVBATDAGI SAHIFASI



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bir paytlar ayrim sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan mamlakat miqyosidagi chempionat va rasmiy musobaqalarni birov bilib, birov bilmay qoldirdi. Qaysi sportchi qanday natija qayd etgan mamlakat sport nashrlari tugul, hududlardagi sport tashkilotlarida, alohida sport maktablarda, sport ta'limi yo'nalishlarida tahlil etilmas, monitoring ishlari o'lda-jo'lda edi.

Bugun esa vaziyat tubdan yangicha, tezkor, shiddatli ko'rinishga keldi. Yurtimizda sportchilarni ro'yxatga olishning yagona elektron tizimi joriy etilishi natijasida hozir nafaqat O'zbekiston chempionati, balki hududiy musobaqalar, ularda qatnashayotgan yosh sportchilarning natijalari tegishli sport federatsiyalarida, ta'lim muassasalaridagi mutaxassislar ishtirokida ko'rib chiqilmoqda, tahlil etilmoqda. Sportchilarga unvon va razryadlarni berish tizimida shaffoflikni ta'minlash ishlarida ijobiy ko'rsatkichlar qayd qilinmoqda.

Joriy yilning ortda qolgan oylari yakuniga ko'ra, mamlakatimiz bo'yicha umumiy hisobda 27 ming 167 nafar razryadli va unvonli sportchi tayyorlandi. Shundan 26 ming 707 nafari razryadli, 460 nafari unvonli sportchilardir. Natijada ular soni o'tgan davrga nisbatan 14,5 foiz oshdi.

Sport yilnomasi: sifat jihatidan yangi bosqich, yangi daraja

Keyingi yillarda kundalik turmush tarzimizga “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Olimpiya cho'qqilari” kabi o'nlab atama va tushunchalar kirib keldi. Bu nafaqat davlat tashkilotlarida mehnat qilayotgan mutaxassislarni, balki mamlakatimizdagi barcha tarmoqlar, aholi qatlamlarini yagona maqsad sari birlashtirdi.

Shu maqsadda “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi farmonda sport orqali aholi salomatligini mustahkamlash, xalqaro maydonda raqobatbardosh terma jamoalarni shakllantirish asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan.

Joriy yilda olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari 250 dan ortiq nufuzli xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etdi. Xususan, III yoshlar Osiyo o'yinlari, VI Islom birdamligi o'yinlari, shuningdek, olimpiya sport turlari bo'yicha Osiyo va jahon chempionatlari, Osiyo va jahon kuboklari va boshqa musobaqalarda 500 dan ortiq sportchimizning ishtiroki uchun zarur shart-sharoit yaratildi.

Dzyudo, taekvondo WT, qilichbozlik, gimnastika, sinxron suzish, suzish, erkin kurash, ayollar kurashi, yunon-rum kurashi, akademik eshkak etish hamda og'ir atletika bo'yicha milliy terma jamoamiz a'zolari olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha 20 ga yaqin jahon chempionatida qatnashdi.

Milliy kurashni dunyo miqyosida ommalashtirish borasida ham salmoqli ishlar bajarildi. Bu so'ngi yillarda ko'plab davlatlarda jahon va qit'a chempionatlari, xalqaro musobaqalar yuqori saviyada o'tkazilganida o'z aksini topdi.

Joriy yilda Tojikiston va Turkmanistonda xalqaro musobaqalar, Yvetnamning Yung Tau shahri va Janubiy Koreyaning Anyang shahridagi musobaqalar hamda boshqa yirik tadbirlar doirasida 8 ta xalqaro kurash musobaqasi tashkil etilib, ularda 1800 dan ziyod sportchi ishtirok etdi. Bu kurashning qit'alar orasida tobora keng ommalashayotganidan dalolat beradi.

Olimpiya harakatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida futbolga katta e'tibor qaratila boshladi. Sport vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi futbol akademiyalari va maktablari, shuningdek, professional futbol klublarining futbol akademiyalarida shug'ullanuvchilar soni 32 ming 333 kishiga yetkazilib, raqobatbardosh futbolchilar zaxirasi shakllantirildi.

Mazkur sa'y-harakatlar O'zbekistonda olimpiya harakatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Terma jamoalarimizning yirik xalqaro musobaqalardagi ishtiroki,

ko'payib borayotgan medallar soni va sport infratuzilmasining kengayishi jahon sport xaritasida yangi O'zbekiston qiyofasini yanada yorqin namoyon etayotir.

2025-yil yakunlariga ko'ra, sport ta'limi muassasalariga qo'shimcha 58 ming 482 iqtidorli sportchi o'g'il-qiz qabul qilinib, natijada muntazam shug'ullanuvchilar soni 11,5 foiz oshdi. Mamlakat bo'ylab 300 dan ortiq sport maktabi va ixtisoslashtirilgan sport ta'limi muassasalari tashkil etilayotgani jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar ulushining 30 foizga yetishiga zamin hisoblanadi.

Sport maktablarida aholi soni va hududlarning ixtisoslashuvini inobatga olgan holda, olimpiya sport turlari bo'yicha 200 dan ortiq yangi sport seksiyasi ish boshladi. Mazkur sa'y-harakatlar, yaratilgan qulayliklar kelgusida joylarda mahoratli sportchilarni tayyorlash borasidagi ishlarni, murabbiylarning salohiyatini monitoring qilib borish, tahlil etish, zarur xulosalar chiqarishga maydon yaratdi.

Prezidentimiz tashabbusi va davlat dasturlarida belgilangan yo'nalishlar orqali sport sohasi nafaqat sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, balki mamlakatimiz nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishning asosiy vositasiga aylanib ulgurdi.

Islohotlar jarayonida asosiy e'tibor “Sog'lom avlod — sog'lom kelajak” tamoyiliga qaratilgan. Zero, kuchli davlat qurilishning, jamiyatda ma'naviy va intellektual yuksalishga erishishning poydevori sog'lom va barkamol avloddir. Shu bois, yurtimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport infratuzilmasini barpo etish, ommaviy sportni keng targ'ib qilishga katta ahamiyat berilayotir.

Xususan, mamlakatimizda 2017-2024-yillardagi islohotlar jarayonida sportni rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar qabul qilindi. Bu, o'z navbatida, aholi, ayniqsa, yoshlarning sportga qiziqishini oshirdi. Natijalar esa birma-bir bo'y ko'rsatdi. Misol uchun, 2024-yilgi Parij olimpiya va paralimpiya o'yinlarida yurtimiz sportchilari munosib ishtirok etib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egallagani bu yo'nalishdagi samarali ishlar natijasidir.

Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishda



sportchilar uchun zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish, ularning tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida tashkil etishning ahamiyati yanada oshadi. Shu maqsadda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tariximizda ilk bor “Olimpiya shaharchasi” qurilishiga kirishildi. Bu majmua nafaqat zamonaviy sport infratuzilmasi, balki milliy sport siyosatida yangi bosqichning ramzidir.

2022-yil 9-noyabr kuni tamal toshi qo'yilgan ushbu shaharcha Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o'zbek sportining olamshumul yutuqlari ramzi bo'lib qolishi lozim edi. Oradan qisqa vaqt o'tdi va bu orzu amalga oshdi. Yuz gektardan ortiq maydonda qurilgan Olimpiya shaharchasi bugun nafaqat yurtimiz, balki butun Markaziy Osiyodagi eng yirik va zamonaviy sport maskani sifatida barpo etildi.

Mazkur majmua sportchilar bilan birga tomoshabinlar, murabbiylar, turli sport federatsiyalari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun ham qulaylik yaratib, sport sohasining barcha tarmoqlarini o'zaro uzviy bog'laydigan ulkan markazga aylandi.

Olimpiya shaharchasi sport fanlari markazi sifatida ham tashkil etilgan. Bu yerda Sport vazirligi, Antidoping agentligi, Davlat sport akademiyasi, Jismoniy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti, Sport turlarini rivojlantirish markazi joylashtirilgan. Shu tariqa sport ilmi, tibbiyoti va amaliyoti uyg'unlashgan holda ish yuritiladi. Sport tibbiyoti markazi orqali sportchilarning salomatligini muntazam nazorat qilish, tiklanish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish mumkin.

Davlatimiz rahbari joriy yil 18-avgust kuni Toshkent shahrida qurib bitkazilgan Olimpiya shaharchasidan tashqari Yuqori Chirchiq tumanidagi Milliy futbol markazi faoliyati bilan ham tanishgan edi.

Yaqin yillargacha O'zbekiston terma jamoalari tayyorgarligi asosan Toshkentdagi Bunyodkor akademiyasi maydonlari va turli hududiy stadionlarda o'tkazilardi. Bir vaqtning o'zida bir nechta terma jamoani tayyorlash imkoniyati cheklangandi. Futbol

mutaxassislari tayyorgarligi ham to'liq yo'lga qo'yilmadi. Murabbiy va hakamlar kurslari alohida o'tkazilgani bilan ilmiy-tadqiqot yoki tahlil markazlari yo'q edi. Zamonaviy seleksiya tizimi ham yo'lga qo'yilmagani uchun iqtidorli yoshlarni saralash murakkab kechardi. Shuningdek, sport tibbiyoti sohasida ham katta bo'shliqlar bor edi. Jarohatlangan futbolchilar ko'pincha xorijda davolanishga majbur bo'lardi. Zamonaviy trenajyorlar, krioterapiya kabi tiklanish usullari mavjud emasdi. VAR tizimi ayrim stadionlarda qo'llangan, ammo markazlashgan kuzatuv majmuasi yo'q edi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qisqa muddatda barpo etilgan Milliy futbol markazi barcha yo'nalishni birlashtiruvchi zamonaviy platforma sifatida ish boshladi.

Markazda bir vaqtning o'zida 6 ta terma jamoa o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazishi mumkin. Inshoot tarkibiga stadionlar, o'quv binolari, sport zallari, mehmonxona, shuningdek, plyaj futbol maydoni, futbol manei, basseyn va reabilitatsiya bo'limi kiradi. Bu yechimlar sportchining kundalik mashg'ulotidan tortib, tiklanishigacha uzluksiz janjir harakatini ta'minlaydi. Natijada vaqt tejalandi, sifat oshadi, xavfsizlik kafolatlanadi.

Majmua futbolchi va mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladigan o'rta yadro tuzilma tashkil etilgan: Futbol mutaxassislarini tayyorlash va ilmiy-tadqiqot markazi, Futbol terma jamoalari tayyorgarlik markazi, Respublika futbol akademiyasi hamda Sport tibbiyoti va reabilitatsiya markazi. Shu bilan birga, “VAR markazi”ning o'rnatilishi boshqaruv, tahlil va hakamlik madaniyatini yangi pog'onaga ko'taradi. Natijalar oshkora, qarorlar tezkor, ma'lumotlar esa metrikalarga tayanadi.

Akademiyada yosh iste'dod egalarini aniqlash va tarbiyalash tizimi xalqaro qoidalariga mos ravishda yo'lga qo'yilgan: Argentina, Vengriya, Xorvatiya kabi davlatlardan mutaxassislar jalb etilgani o'quv dasturlari mazmunini boyitadi, trenerlik, hakamlik, seleksiya va tahlil sohaslarida integral qobiliyatni shakllantiradi. Bu yosh futbolchining texnikasidan tashqari, fikr tezligi, qaror qabul qilish madaniyati va raqobat ruhini ham kuchaytiradi.

Tarixiy g'alaba va yoshlar muzaffariyati — o'zbek futbolining yorqin qiyofasi

Bunyodkorlik ishlari, natijalar, muvaffaqiyatlar orasida ro'y bergan tarixiy voqealar hech qanday tasodif yoki bir kunlik omad mahsuli emas, balki yillar davomida shakllangan aniq maqsad, qat'iy siyosiy iroda va bosqichma-bosqich bajarilgan tizimli ishlar samarasidir.

Osiyo qit'asida futbol bo'yicha jahon chempionati uchinchi saralash bosqichining 9-turida O'zbekiston terma jamoasi safarda BAA termasiga qarshi o'yin o'tkazdi. 0:0 hisobidagi durangdan so'ng terma jamoamiz ilk bor jahon chempionati yo'llanmasiga ega chiqdi. Shu tariqa O'zbekiston futbol tarixida mutlaqo yangi sahifa ochildi. Bu mamlakatimiz futbolidagi keng qamrovli islohotlarning mantiqiy natijasi bo'lib, nafaqat futbolchilarning, balki butun xalqimizning ushalmasdek ko'ringan orzusini ro'yobga chiqardi.

O'zbekiston milliy terma jamoasi bugunga qadar jahon chempionatining jami 7 ta saralash bosqichida ishtirok etgan va turli bosqichlarda musobaqadagi ishtirokini yakunlagan. Eng yomon natijamiz 2022-yilda qayd etilgan. O'shanda ikkinchi bosqichda 15 ochko jamg'arib, uchinchi bosqichga o'ta olmadik. Ushbu armon va alamlar natijalardan so'ng futbolni yanada rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratila boshladi.

Prezidentimiz rahbarligida 2023-yil 28-aprelda o'tkazilgan yig'ilishda futbol infratuzilmasini tubdan yangilash, bolalar va o'smirlar o'rtasida futbolni ommalashtirish, tajribali murabbiylar va zamonaviy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

Mazkur ko'rsatmalar ijrosi yuzasidan 2024-yilda Respublika futbol akademiyasi negizida Milliy futbol markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, futbol bo'yicha ilmiy-tadqiqot va uslubiy markaz faoliyati yo'lga qo'yildi.



Keng ko'lamli sa'y-harakatlar natijasida O'zbekiston futbolining turli yosh toifalaridagi jamoalari xalqaro arenalarda munosib natijalarga erishib kelmoqda. Co'nggi yillarda U-17, U-20 va U-23 terma jamoalarimiz jahon chempionatlari va olimpiadaga chiqishdek yuksak natijalarga erishdi. Endi esa ushbu barkamol avlod va milliy tizimda shakllangan zamonaviy futbol falsafasi milliy terma jamoamizni ham jahon chempionati sahnasiga olib chiqdi.

Prezidentimizning 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori mamlakatimizda futbolning ommaviyligini oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash hamda o'rnatilgan standartlarga moslashtirishda muhim zamin bo'ldi.

Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) shafeligida har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo kubogi katta sport ostonasida turgan yoshlar uchun mahorat va tajriba maktabi bo'lish bilan birga qit'amiz terma jamoalari uchun U-17 yosh toifasidagi jahon chempionatiga yo'llanma beradigan yagona musobaqa hamdir.

Ana shunday nufuzli musobaqaning bu galgisi Saudiya Arabistonida tashkil etildi. Unda qit'amizning 16 jamoasi 4 guruhga bo'lingan holda g'oliblik va Qatarida o'tadigan mundial yo'llanmasi uchun kuch sinashdi.



Qariyb bir oy davom etgan Osiyo kubogi bahslarining so'nggi — hal qiluvchi o'yini Saudiya Arabistoni va O'zbekiston terma jamoalari o'rtasida Toif shahridagi “Podshoh Fahd” stadionida o'tkazildi. O'zbekistonlik futbolchilar Saudiya Arabistoni terma jamoasini 2:0 hisobida yutib, o'z tarixida ikkinchi marta Osiyo chempioni bo'ldi.

Zafarlar zafarlarga ulanib, shunday qizg'in pallaga kirib keldik: ilgari futbolda o'z o'mini topa olmagani, yashil maydonlarda tan olinmagani mamlakat bugun nafaqat milliy terma jamoasini xalqaro maydonlarda namoyish etish imkoniga ega bo'ldi, balki bo'lg'usi yirik jahon chempionatlariga mezbonlik qilish salohiyatiga ham erishdi.

Joriy yil 2-oktabr kuni FIFA kengashi yig'ilishida futbol bo'yicha 20 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida 2027-yilgi jahon chempionatini O'zbekiston va Ozarbayjonda

o'tkazish qarori qabul qilindi. Uning doirasidagi o'yinlar ikki mamlakatdagi 3 tadan stadionda o'tkaziladi. Final va yarim final o'yinlari sig'imi 50 mingdan ko'p bo'lgan stadionda o'tkazilishi FIFA talablaridan biridir.

Shu bois, mamlakatimiz futbol uchun muhim yana bir yirik loyiha — Yangi Toshkent stadioni qurilishiga start berildi. Prezidentimiz 11-noyabr kuni zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamal toshi qo'ydi. Yangi Toshkent hududidagi barcha loyihalar zamonaviy me'morlik va milliy qadriyatlar uyg'unligida ekologik va “aqli” boshqaruvga asoslanib barpo etilmoqda. Shu umumiy konsepsiya asosida quriladigan yangi stadion ham tabiat bilan uyg'un bo'ladi hamda “yashil” energiya va “qulay muhit” tamoyillariga asoslanadi.

Yangi Toshkent stadioni FIFAning barcha talablariga mos ravishda barpo etiladi hamda Osiyodagi eng yirik va zamonaviy infratuzilmaga ega futbol maydonlaridan biri bo'ladi. Bu inshoot nafaqat 2027-yilgi 20 yoshgacha bo'lganlar o'rtasidagi jahon chempionati, balki butun o'zbek futbol va yoshlar sportining kelgusi rivoji uchun ham xizmat qiladi. 55 ming o'rinni yangi stadion milliy jamoamizdan tashqari professional klublarimiz uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Endi nufuzli xalqaro musobaqalarni yurtimizda o'tkazish, dunyo futbol elitasi bilan hamkorlik qilish imkoni paydo bo'lmoqda.

Prezidentimizning “2027-yilgi futbol bo'yicha U-20 jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori esa ushbu jahon

championatini yuqori saviyada tashkil etishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Yakunlanayotgan yilning xushxabarlari

Noyabr oxirida davlatimiz rahbari boshchiligidagi Olimpiya shaharchasida boshlangan tantanali sport bayrami tarixiy g'alabalarga ulanib, katta shodiyonaga aylandi. Prezident Olimpiadasi sport musobaqasining tantanali ochilish marosimi vaqtida o'zbek grossmeysteri Javohir Sindorov shaxmat bo'yicha jahon kubogi sohibi bo'lgani to'g'risidagi xushxabar millionlab ko'ngillarga g'urur, shukuh olib kirdi.

Hali 20 yoshga kirmagan yigit butun shaxmat dunyosi e'tiborini yana bir bor O'zbekistonga qaratadi. Hindistonning Goa shahrida o'tgan

jahon kubogi finalida u xitoylik Vey Ini taslim qildi va shunchaki g'olib emas, tarixdagi eng yosh chempion bo'ldi. Bu rekord 20 yildan buyon Levon Aronyan qo'lida edi. Endi esa uni o'zbek yigiti yangiladi.

Qolaversa, u 2026-yilgi Da'vogarlar turniriga yo'llanmani ham qo'lga kirdi. Javohirning bu g'alabasi o'zbek sportchilarning yangi avlodi katta sport maydoniga yuksak shijoat va so'nmas g'ayrat bilan kirib kelayotganini ko'rsatdi.

O'tayotgan yil davomida yurtimiz sportchilari qator kompleks musobaqalarda olamshumul natijalarga erishdi. Olimpiya va paralimpiya yo'nalishidagi sport turlarida 50 dan ziyod jahon va qit'a chempionatlarida 700 ga yaqin medallar shodasi qo'lga kiritilgani O'zbekiston sportining xalqaro nufuzi yildan yilga yuksalib borayotganidan dalolat.

2025-yil yangi O'zbekiston tarixida yana bir sahifa ochildi. Sportchilarimiz Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida V Yoshlar Paraosiyo o'yinlarida tarixiy g'alabaga erishdi. Shu orqali ular bir necha rekordni yangilab, Osiyo qit'asida 1-o'rinni egalladi. BAAda 35 davlatning 1312 yosh parasportchisi ishtirokidagi murosasiz bahslarda hamyurtlarimizning 99 ta oltin, 57 ta kumush va 41 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egallagani yangi O'zbekiston yoshlarining salohiyatini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Prezidentimiz joriy yil 11-dekabrda “Paralimpiya sport turlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan parasportchi yoshlarga yana bir karra katta ishonch bildirdi. Bunday imkoniyat va e'tibor yoshlarga qanot bag'ishladi. Davlatimiz rahbarining ishonchidan ruhlangan sportchilarimiz 35 davlatdan kelgan tengdoshlari orasida g'alabaga intilishi bilan ajralib turdi. Ular nafaqat yutuqlari, balki o'ziga ishonchi, ko'tarinki kayfiyatda bahslarga kirishishi bilan ham ko'zga yaqqol tashlandi. Ana shu ko'tarinkilik, ishonch musobaqalarda o'z so'zini aytdi. Paraosiyo o'yinlari biz uchun rekord va ekskluziv natijalarga boy bo'ldi. Qolaversa, sportchilarimiz ko'plab jahon va Osiyo rekordlarini o'rnatdi. Ularining bunday shonli yurishi xalqaro maydonga yangi, yosh va jasoratli sport jamoasi kirib kelayotganini ko'rsatdi.

Shuningdek, qarorda nogironligi bo'lgan shaxslarning paralimpiya sport turlariga qiziqishini oshirish vazifasi qo'yildi. Mamlakat rivoji ruhan tetik shaxslarga bog'liq. Zero, bunday insonlarda hayotsevarlik, ertangi kunga ishonch kuchli bo'ladi. Ulardagi ana shu quvvat butun jamiyatga ijobiy ta'sir qiladi. Yurtodoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarni sportga qiziqitirish orqali jamiyatimizda mana shunday ijobiy kayfiyat yanada mustahkamlanib bormoqda.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining joriy yil 8-iyulda “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida”gi qarori qator imkoniyatlar tadqim etish orqali paralimpiya o'yinlariga yanada ko'tarinki ruhda, har tomonlama puxta hozirlik ko'rishga zamin hozirladi.

Bunday islohotlarni sanashda davom etish va ularning ahamiyatini baholashga hali ko'p qaytamiz. Muhimi, ushbu xayrli ishlar kerakli shart-sharoitni yaratibgina qolmay, imkoniyatlar majmui sifatida qamrovni keng oldi. Bu esa oldimizga yanada yuqori maramlarni zabt etish vazifasini qo'yadi, harakatlarmizga aniq yo'nalishni belgilaydi va har bir qadamni rejalashtirishda samarali asos bo'lib xizmat qiladi.



Boshlanishi 1-betda

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati O‘zbekistonda mazkur mahsulot ishlab chiqaruvchi asosiy yirik sanoat subyektidir. 2025-yilda kombinat faoliyatida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi, qanday natijalarga erishildi, kelgusi rejalar nimalardan iborat?

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi, senator Abdulla XURSANOV bilan suhbatimiz shular xususida bo‘ldi.

— Bugun dunyo siyosiy sahnida bo‘layotgan o‘zgarishlar, jahon iqtisodiyotidagi tebranishlar kutilmagan vaziyatlarga har doim tayyor turishdek dolzarb vazifani qo‘ymoqda. Bunday murakkab sharoit, ayniqsa, yirik sanoat korxonalari jamoasini oqilona faoliyat yuritish hamda muammolarga to‘g‘ri yechim topishga undaydi. 2025-yil kombinat uchun qanday keldi? Ya‘ni jahon bozorida mis, oltin va kumush narxlari o‘shishi fonida investitsiya loyihalari ahamiyati o‘zgarmidi?

— Bu borada 2025-yil jamoamiz uchun o‘ziga xos tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Yoshlik-1 konini o‘zlashtirish investitsiyaviy loyihasi doirasida qator salmoqli ishlar qilindi. Jahonning eng ilg‘or texnologiyalari va yuqori sifat standartlarini qo‘llagan holda 60 million tonna ma‘danni qayta ishlash quvvatiga ega 3-mis boyitish fabrikasining birinchi liniyasi ishga tushirildi. Loyiha doirasida qator obyektlarimiz ham faoliyat boshladi. Jumladan, ohak zavodida quvurli aylanma pechning 2-tarmog‘i, portlovchi materiallar zavodida emulsiyali portlovchi moddalar ishlab chiqarish yangi tarmog‘i foydalanishga topshirildi. Jizzax viloyatining Forish tumanida yangi ohak zavodi qurilishiga start berildi.

Shu bilan birga, Yoshlik-1 koni va uning texnika majmuasini tashqi elektr energiyasi bilan ta‘minlash maqsadida yana bir zamonaviy raqamlashtirilgan texnologik podstantsiya barpo etilmoqda.

3-mis boyitish fabrikasida yiliga 900 ming tonnaga yaqin mis konsentratini ishlab chiqariladi. Yutuq faqat hajmda emas, balki jahonning yetakchi sanoat kompaniyalari texnologiyalari, avtomatlashtirish tizimlari va raqamli boshqaruv yechimlari yagona zanjirida mujassamlashganida ham namoyon bo‘ladi. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv va inson kapitali uyg‘unligining amaliy namunasi bo‘lgan fabrika to‘liq quvvatiga chiqqach, 3000 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi.

Shuningdek, yangi 6-sulfat kislota ishlab chiqarish zavodi qurilishi yakuniy pallaga yetdi. Kovuldi koni ma‘danlarini qayta ishlashga mo‘ljallangan yana bir yangi oltin saralash fabrikasi qurilishini boshladik.

Yoshlik-1 konini o‘zlashtirish loyihasi doirasida 4-mis boyitish fabrikasi va uning infratuzilma obyektlarini qurish bo‘yicha ham ishlar boshlab yuborilgan. Loyihaning atrof-muhitga ta‘sir bo‘yicha ijobiy xulosa olingan. Loyiha doirasida kengaytirilgan geologik tadqiqotlar o‘tkazish va geologik burg‘ilash va tuproqni gidrologik tadqiqot qilish uchun quddug burg‘ilash ishlari bajarildi. Boshqa tashkiliy va zaruriy chora-tadbirlar ham ko‘rilmoqda.

Yana bir muhim strategik loyihamiz yangi metallurgiya zavodi bo‘lib, uning ishga tushishi natijasida kombinatda mis ishlab chiqarish quvvati 148,5 ming tonnadan 300 ming tonnagacha yetadi. Ming kishining bandligi ta‘minlanadi. Ushbu majmua qurilishining bazaviy muhandislik hujjatlari, tijorat taklifi “METSO-OUTOTEK” (Finlyandiya, Germaniya) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqildi. Uni yuridik ekspertizadan o‘tkazishga “DENTONS” kompaniyasi jalb qilindi. Majmua obyektlari qurilishini moliyalashtirish uchun Germaniyaning “KfW IPEX-Bank GmbH” banki bilan 2,5 milliard dollarlik bitim imzolandi.

So‘nggi yillarda jahon bozorida mis, oltin va kumush narxlari o‘smoqda. Bu global iqtisodiyotdagi texnologik transformatsiya, “yashil” energetikaga o‘tish, geosiyosiy xavflar va strategik xomashyolarga talab ortishi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari nafaqat korxona, balki butun O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Qayd etganingizdek, mis bugungi kunda raqamli va “yashil iqtisodiyot”ning asosiy resursi sifatida baholalanmoqda. Elektromobillar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, elektr tarmoqlari va sanoat avtomatizatsiyasi misga talabni keskin



“Yashil” energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan “yashil” energiya sotib olish bo‘yicha shartnomalar imzolaganmiz. Shunday qilib, kombinat “yashil” energiya uchun yirik iste‘molchilaridan biriga aylanadi. Iqtisodiy samara hozirdanoq sezilmoqda: elektr energiyasi uchun to‘lovlarida yiliga 5,9 milliard so‘m tejayapmiz.

oshirmoqda. Oltin esa global noaniqlik va inflyatsiya sharoitida qiymatni saqlash vositasi sifatida yuqori talabga ega. Kumush ham sanoatda, ham investitsion aktiv sifatida ahamiyatli. Kombinatomiz aynan shu uchta strategik metalni ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonasi sifatida jahon bozorida ijobiy konyunkturadan maksimal foyda olish imkoniyatiga ega. Yangi konlarni o‘zlashtirish, zaxirani ko‘paytirish, zamonaviy boyitish va qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish, energiya samaradorligi, ekologik standartlarni oshirish, yuqori qiymat qo‘shilgan mahsulotlar ishlab chiqarish ulushini ko‘paytirishga qaratilgan investitsiya loyihalari shuni bilan ahamiyatli. Bu loyihalar orqali

— Biznes va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, boshqaruv va operatsion sohani optimallashtirish doirasida shu yilning o‘zida 20 ta loyihani ishga tushirdik. Yana 7 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelayotgan sun‘iy intellekt texnologiyalari samarali qo‘llanilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy axborot tizimlarini qo‘llash maqsadida Qalmoqqir va Yoshlik-1 konlarida kon-transport boshqaruv tizimi ishga tushirildi. Natijada ma‘lumotlarni onlayn shaklda jamlash, qayta ishlash yo‘lga qo‘yildi. Yoshlik-1 konida ekskavator-avtosamosval operativ boshqaruv



kombinatni faqat xomashyo yetkazib beruvchi emas, balki chuqur qayta ishlovchi yuqori texnologik sanoat markaziga aylantirish maqsad qilgan. Investitsiya dasturlari mamlakatimiz uchun katta natija beradi.

Birinchidan, eksport salohiyatimiz ortadi. Mis, oltin va kumush narxi balandligi valyuta tushumlarini ko‘paytirib, to‘lov balansi hamda milliy valyutamiz barqarorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, sanoat rivojlanadi. Yangi quvvatlar ishga tushirilib, mashinasozlik, energetika, kimyo va logistika sohalari o‘shishiga turki beradi.

Uchinchidan, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, hududlar rivojlanadi. Chunki yirik investitsiya loyihalari yuqori malakali kadrlarga talabni oshiradi.

To‘rtinchidan, texnologik mustaqillik mustahkamlanadi. Chuqur qayta ishlash va zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishi O‘zbekistonning sanoatdagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Kombinatning investitsiya loyihalari xalqaro doirada yuqori baholanmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tog‘-kon sanoati” IV xalqaro kongressi va ko‘rgazmasida kombinatomiz “Yil investitsiyaviy loyihasi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

— Bugungi kunda ishlab chiqarishni raqamlashtirish va sun‘iy intellektidan foydalanish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bu borada qanday ishlar qilinmoqda?

tizimi joriy qilindi. Konlarda marksheyderlik ishlarni tezkorlikda amalga oshirish maqsadida uchuvchisiz uchish qurilmalari qo‘llanilmoqda. Natijada marksheyder o‘lchash ishlari 3 barobar tezlashib, xodimlar xavfsizligi oshirildi.

Mis boyitish fabrikasi texnologik jarayonlarida ma‘dan-suv nisbatlarini avtomatlashtirish maqsadida nazorat va o‘lchov javonlari o‘rnatildi. Flotatsiya jarayonini avtomatlashtirish uchun “U-flotation” intellektual tizimi joriy etilmoqda. U real vaqtda jarayonni tahlil etib, boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yo‘qotish va xarajatlarni kamaytiradi. Mis boyitish fabrikasida qo‘shimcha 3 ta konsentrator o‘rnatilishi tufayli foydali qazilmalarni ajratib olish darajasi 3 foiz oshirildi. 2-mis boyitish fabrikasida maydalash-yuvish uchastkasi uskunalarini montaj va sozlanishi natijasida avariya-viy to‘xtashlar 30 foiz kamayadi. Mis eritish zavodida avtomatlashtirilgan axborot tizimi tayyor mahsulotni yuklash va nazorat jarayonlarini qulaylashtirdi.

Sun‘iy intellekt tizimini rivojlantirish va axborot xavfsizligini oshirish maqsadida Qalmoqqir va Yoshlik-1 konlarida kon-transport boshqaruv tizimi doirasida ma‘dan o‘lchamlari, ekskavator tishlarini nazorat qilishdan tashqari haydovchilar charchog‘ini kuzatish imkonini paydo bo‘ldi. Shu kunlarda ma‘danni boyitish jarayonida videotahlil — “Mashina ko‘z nazorati” loyihasi joriy etilmoqda. Bunday misollar ko‘p. Muhimi, kombinatda raqamlashtirish ishga

unum va samara bermoqda.

— Mamlakat iqtisodiyoti va odamlar turmush farovonligi ko‘p jihatdan yirik korxonalar faoliyatiga bog‘liq. Lekin oxirgi paytlarda ishlab chiqarish subyektlarining atrof-muhitga salbiy ta‘sir haqida ham ko‘p gapirilmoqda...

— Nimani nazarda tutayotganingizni tushundim. Nima uchun ekologiyaga jiddiy e‘tibor qaratishimiz, ishlab chiqarishga “yashil” texnologiyalarni tez tatbiq qilishimiz kerak? Avvalo, aholi yil sayin ko‘payib bormoqda. Tabiiy resurslar zaxirasi esa tobora kamaymoqda. Bugun jahonda olimlar, hukumatlar tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni keng joriy etish takliflari faollashgani bejiz emas. Biz bunday taklif va tashabbuslarni doim qo‘llab-quvvatlab kelyapmiz. Bu faoliyat strategiyamizning ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu maqsadda sanoat maydonlarida ma‘nan eskirgan uskunalar yangilanib, rekonstruksiya qilinayapti, quyosh

elektr stansiyalari o‘rnatilmoqda, chiqindilar qayta ishlanib, hudud ko‘kalamzorlashtirilyapti, suv infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda. Umuman, joriy yilgi faoliyatimiz atmosferaga chiqindilarni kamaytirish bilan bog‘liq bo‘ldi deyish mumkin. Jumladan, mis boyitish fabrikalarining havoni chang va gazlardan tozalashga mo‘ljallangan aspiratsiya tizimlari to‘liq rekonstruksiya qilindi. Asosiy va yordamchi obyektlardagi 30 ta tizim mukammal va 130 ta eskirgan ventilyatsiya-aspiratsiya qurilmasi joriy ta‘mirlandi. Natijada ularning ish samaradorligi 99,5 foizga yetkazildi.

“Mis eritish zavodining sulfat kislota sexida chiqindilarni avtomatik tahlil va monitoring qilish uskunalari joriy etildi. Qolaversa, 180 ming tonna quvvatga ega yangi 6-sulfat kislotali zavodi ishga tushirilishi bilan ilgari qisman atmosferaga chiqib ketgan gazlar to‘liq ushlab qolinadi. Daniyaning “FLSmidth” kompaniyasining yangi filtrlari gazni chuqur tozalash va qo‘shimcha metall ajratib olish ko‘rsatkichlarini ta‘minlaydi. Eski sex foydalanishdan chiqariladi.

Yangi metallurgiya majmuasida “Flash Smelting” (mash‘alada eritish) va “Flash Converting” (mash‘alada konverterlash) texnologiyalari asosida ishlaydigan zamonaviy pechlar qurilmoqda. Yangi sulfat kislotali majmuasida chiqindi olingugurt gazi to‘liq ushlab qolinadi va qo‘shimcha mahsulot — yiliga 1,8 million tonnagacha sulfat kislotali olishga yo‘naltiriladi, shu bilan birga, tashlanma gazlar kamayadi. Yangi quvvatlar ishga tushirilgach, mis eritish zavodidagi eskirgan yallig‘ qaytaruvchi pech ham foydalanishdan chiqariladi. Kombinatomizda chang va gazlarni tutib qoluvchi 980 dan ortiq uskuna o‘rnatilgan bo‘lib, markaziy tahlil laboratoriyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, ifloslantiruvchi moddalar hajmi o‘tgan yili avvalgi yildagiga nisbatan 10 foiz kamaygan. Joriy yilda yana 2-3 foiz pasaydi.

Ikki yil avval ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarda fotoelektr stansiyalar o‘rnatishni boshlagan edik. Bu davrda kombinat pilot qurilmalardan barqaror quyosh generatsiyasini rivojlantirish dasturiga o‘tdi. Ushbu strategik qadam barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqligimizni bildiradi.

Bugungi kunda 80 dan ortiq maydonda umumiy quvvati 7,3 ming kilovatt bo‘lgan stansiyalar ishlab turibdi. Joriy yilda ular tomonidan 5,9 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Shuningdek, “yashil” energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan “yashil” energiya sotib olish bo‘yicha shartnomalar imzolaganmiz. Shunday qilib, kombinat “yashil” energiya uchun yirik iste‘molchilaridan

biriga aylanadi. Iqtisodiy samara hozirdanoq sezilmoqda: elektr energiyasi uchun to‘lovlarida yiliga 5,9 milliard so‘m tejayapmiz. Kelgusi yilda qo‘shimcha 1 ming 150 kilovatt quvvatli fotoelektr stansiyalari qurish, talab yuqori bo‘lgan soatlarda quyosh generatsiyasidan foydalanish imkonini beruvchi energiya saqlash tizimlarini ishga tushirish mo‘ljallangan.

Dolzarb yo‘nalishlardan yana biri texnogen chiqindilarni qayta ishlashdir. Kombinaning rux va mis eritish zavodlaridagi yangi maydalash uchastkalarida shu yilning o‘zida 100 ming tonnadan ortiq mis klinski, ya‘ni chiqindilarni qayta ishlashdan hosil bo‘ladigan qoldiqlar qayta ishlatildi.

Suv yo‘qotishlarini kamaytirish va gidrotexnik inshootlar xavfsizligini oshirish maqsadida suv havzalari tozalaniib, nasos uskunalar va magistral quvurlar germetizatsiya qilindi. “Yashil makon” va “Yashil belbog‘” loyihalari doirasida 270 gektardan ortiq maydonda 1,9 million tup daraxt ekildi.

— Kadrlar hal qiluvchi kuch hisoblanadi. Yangi korxonalar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish — bularning hammasiga malakali kadrlar kerak. Kadrlar masalasiga qanday e‘tibor qaratilmoqda?

— Kombinada kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashga ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Bugungi kunda bizda 35 mingga yaqin ishchi va muhandis-texnik xodim faoliyat yuritmoqda. O‘quv markazimizda har yili o‘rtacha 11 ming 500-12 ming nafar kadr malakasi oshirilib, qayta tayyorlanadi.

Kadrlar tayyorlash maqsadida 26 ta oliy ta‘lim muassasasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Har yili kombinat tarkibiy korxonalarida 4000 talaba uchun ishlab chiqarish, diplom oldi amaliyotlari va ekskursiyalar muntazam ravishda tashkil qilinadi. A‘lo baholarda tahsil olayotgan talabalardan 143 nafar va kollejning 14 o‘quvchisi dual amaliyot davrida oylik ish haqi, bepul ovqat va maxsus kiyimlar bilan ta‘minlandi. O‘tgan yili oliy ta‘lim muassasalari va kasb-hunar kollejlarning 427 nafar bitiruvchisi kombinatga ishga qabul qilindi.

Janubiy Koreyaning ADJU, INHA, Yaponiyaning Akita universitetlari, Germaniyaning Frayberg texnika universiteti konchilik akademiyasi va Drezden texnika universiteti hamda Rossyaning Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti, Moskva po‘lat qotishmalari instituti bilan barqaror hamkorlik qilinmoqda.

“O‘quv markazimizning 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasi zamonaviy ilm-fan va texnika hamda ta‘lim taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga tatbiq etgan holda kombinat kadrlari malakasini oshirish, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

2024-yilda faoliyatini boshlagan Muhandislik maktabida Germaniyaning Frayberg texnika universiteti konchilik akademiyasi kadr tayyorlash bo‘yicha metodologiyalari asosida mutaxassislar malakasini oshirish yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda.

2025-yil aprel oyida “GeoMetTex” ilg‘or muhandislik maktabi tashkil etildi. Ishlab chiqarish texnologik kompaniyalari uchun ilmiy izlanish olib borish, natijalarini amaliyotga tatbiq qilish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan maktabga 2025/2026-o‘quv yili uchun metallurgiya mutaxassisligining “Rangli metallar rudalarini boyitish” magistratura dasturi bo‘yicha 12 talaba qabul qilindi.

Mamlakatimizda “Tejamkorlik va barqarorlik” tamoyili asosida davlat ixtirokridagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini 20 foizgacha qisqartirish rejalashtirilgan. Dunyoda kechayotgan o‘zgarishlar davrida rivojlanish va harakatchilik bo‘lishimiz shart.

O‘ylaymanki, zimmamizga yuklatilgan vazifalarni ado etishda ahil, bilimli, va tajribali jamoaning alohida o‘rni bor. Taraqqiyotning yangi bosqichi sari dadil odimlayotgan yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudratiga korxonamizning har bir fidoyi ishchi-xodimi o‘zining munosib hissasini qo‘shadi, albatta.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Dilshod ULUG‘MURODOV suhbatlashdi.

Prezidentimiz G‘uzor tumanidagi “Pachkamar qorako‘lchilik” MCHJ bosh cho‘poni Parda Normurodovni “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirлади. Biz cho‘pon bilan yaqindan tanishish, bunday ehtiromning sirini bilish maqsadida yo‘lga chiqdik...

Yo‘lga chiqishimizdan oldin ko‘pchilik Parda cho‘pon yashaydigan manzil ancha olmasdekani, har qanday yengil mashina bora olmasligini aytdi. Biz ortga qaytishni istamasdik. Iltimosimizga ko‘ra, qorako‘lchilik xo‘jaligining “UAZ” rusumli mashinasida yo‘lga tushdik. Haydovchining aytishicha, u o‘ttiz yilga yaqin vaqtdan buyon shu cho‘lga qatnar, cho‘ponlar holidan xabar olish uchun ko‘pincha “UAZ”dan foydalanar ekan.

— Mashina yangiligida menga berilgan. Vaqt o‘tib, ikkinchi ham charchab qoldik, — deydi Mo‘min aka hazil ohangida. — Endi birga pensiyaga chiqamiz, shekilli. Ko‘rib turganingizdek, bugun bunday texnikalarga ehtiyoj qolmayapti. Faqat bizning hududimizda zarurat uchun foydalaniladi. Siz izlab borayotgan Parda cho‘ponni ancha yildan buyon taniyman. Juda kamtar, fidoyi inson. Mukofotlanganini eshitib, xursand bo‘ldik. O‘zi shu kuni otarni haydab chiqib ketgan ekan. Keyin xabar topdi. Xursandligini ko‘rsangiz edi. Dashtda mehnat qilib yurgan mana shunday oddiy odamlar e‘tirof etilgani hammamizni quvontirdi.

Markazdan ancha yurib, Do‘ltali qishlog‘iga kirib bordik. Bir oz o‘tib, qishloq ham ortda qoldi. Buyog‘i pastu baland adirlar boshlandi. Atrofda hech zog‘ ko‘zga tashlanmaydi. Haydovchi bir maromda mashinani boshqarib bormoqda. Ancha yo‘l yurilgach, olisdan bir suruv qo‘y ko‘rindi. Yaqinlashdik deb o‘ylagandik. Ammo haydovchi bu boshqaning otari ekanini aytdi. Dalada biror o‘t-o‘lan o‘smagan. Yantoqni aytmasa, suruv nima yeb yurganiga hayron qoldik. Haydovchining ta’kidlashicha, ikki marta yomg‘ir yog‘ib, hartugul cho‘l bir oz yaxshilangan. “Shu paytgacha chang-to‘zondan bu atrofda yurib bo‘lmadi”, deydi u.

Bir soatdan ziyod yo‘l bosdik. Rosti, G‘uzor tumanida shunchalik bepoyon dasht borligi xayolimizga ham kelmagan ekan. Adog‘i ko‘rinmaydi. Bir tepalikdan oshar ekanimiz, haydovchi manzilga yaqinlashganimizni aytdi. Bir oz yurib, atrofi simto‘r bilan o‘ralgan qo‘ra o‘rtasidagi g‘aramni ko‘rdik. Undan narida ikki xonadan iborat, o‘rtasi ayvonli uy. Atrofida bo‘ribosar itlar yotardi. Mashinadan tushishga ikkilanib turganimizda, quchoq ochib uy egasi chiqib keldi. Gapi samimiy, ochiqko‘ngil kishi Parda cho‘poni ekanini bilib, yuksak mukofot bilan tabrikladik. Suhbatimiz tez qovushishi uchun cho‘ponni sal narida yurgan suruv tomon boshladik.

— Bu yerlarda qo‘y boqishni boshlaganimga ellik yilga yaqinlashib qoldi, — deydi Parda Normurodov. — Shukrki, hamon to‘xtaganim yo‘q. “Daraxt bir joyda ko‘karadi” deganlaridek, shu kasbning etagidan tutib, kam bo‘lmadim. Cho‘ponlikning ham o‘ziga

yarasha mashaqqati, shunga yarasha rohati ham bor. Bobolarimiz “Suruvni molning tuyog‘idan ham qattiq odam boqadi”, derdi. Bilasizmi, bir paytlar ayolim bilan kechalari suruvning qo‘zilashiga diqqat bo‘lib, mijja qoqmagan paytlarimiz ko‘p bo‘lgan. Gohida yangangiz nolisa, “Ertaga yaxshi kunlar keladi. Mehnatimiz rohatini ko‘ramiz. Bir kuni buning rag‘bati, albatta, bo‘ladi”, deya ovutardim. O‘sha kuni qo‘ylarni sug‘orib, endi uyga kirgandim, telefon jiringladi. Aslida, bizda telefon aloqasi yaxshi emas. Charchagan ekanman, telefonni ko‘tarib, javob berish yoqmadi. Bir oz o‘tib, yana qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Telefonni ko‘tardim. Kimligini ham anglamay qoldim. “Mukofot muborak bo‘lsin, cho‘pon bobo”, deb tabriklab keta deng. Nimaligini, qanday mukofotligini ham bila olmay qoldim. Bir ozdan so‘ng yana qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Endi xo‘jaligimiz raisi ekan. U: “Davlatimiz rahbarining “Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga hissa qo‘shgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra orden bilan taqdirlandingiz, tabriklayman!” degach, tushunib yetdim. Avvaliga shunchaki hazil deb o‘yladim. Ketma-ket aytishgach, ishonch hosil qildim. Yosh boladek quvonganimni ko‘rsangiz edi. Dalaga chiqib hayqirgim keldi. Mendek chorvadorning mehnatini ulug‘ladi Prezidentimizga ming rahmat. Bu e‘tirof kuchimga kuch qo‘shdi. Shijoatim toshib, ancha yoshardim.

Quvonchdan to‘lib-toshib gapirayotgan cho‘ponning hayajoni haligacha bosilmagani bilinib turardi. U kengliklarga termilib, jim qoladi. Go‘yo yo‘qotgan narsasini topganday yana shoshib gap boshlaydi.

— Yaratganning karami keng. Kuz ancha qurg‘oqchil kelganiga barchamiz tashvishga tushgandik, — deydi osmonga ishora qilib u. — Shukrki, mana yomg‘ir yog‘a boshladi. Bu rizq-baraka degani. Chorvaga xayrli bo‘ladi. Dehqonga umid bag‘ishlaydi. Omborlar donga to‘ladi.

Suhbatdoshimizni suratga tushirmoqchi ekanimizni aytgandik, “hozir”, deganicha uyiga shoshildi. Birpasda ohorli libosda, “Mehnat shuhrati” ordenini taqib chiqdi. G‘uzor tumanidagi “Pachkamar qorako‘lchilik” MCHJ bosh cho‘poni ko‘ksiga yarashib turgan ordeni silab qo‘yardi. Qarab turganimizni sezib: “Bu tunlarimni yoritgan tong yulduzi”, deganicha kuldi.

Cho‘pon bejiz tong yulduzi demagan ekan. Suhbatimiz davomida u boshqa kasb egalariida uchramaydigan qiziqarli voqealarga, sarguzashtlarga boy hikoyalari aytib berdi. Biz ulardan bir qismini sizga aytib berishni istadik.

... Qahraton qish. Ayoq qisib, kechga tomon yana qor yog‘a boshladi. O‘zi odatda Toshterma cho‘lida ko‘p ham qor yog‘avermaydi. Lekin bu yil qish qattiq keldi. Qantar qo‘ganiga uch-to‘rt kun bo‘ldiki, hamon qor to‘xtagan yo‘q. Yon-atrofni qoplab, cho‘lning past-balandi bilinmay qoldi. Gohida izg‘irin shamol turib, ko‘z ochirmaydi. Shunday kunda birinchi marta kelgan kishi adashib, sahroda tentirashi aniq. Axir bu manzil odamlar yashaydigan ovuldan naq o‘ttiz chaqirim yiroqda. Har o‘n



chaqirimda birgina cho‘ponning uyi, qo‘rasi dach kelishini aytmasa, biror kishini uchratish mushkul. Shu sabab cho‘ponlarga haftada bir marta yegulik olib keladigan “UAZ” haydovchisidan boshqa birov yurak yutib, shu tomon yo‘l solmaydi.

... Cho‘pon e‘tini qoqib, ichkariga kirdi. Paytavasini pech yoniga ilarkan, ko‘nglidan qor hali-beri tinmaydi degan o‘y o‘tdi. Shu o‘y sabab Parda cho‘ponning xavotiri ortdi. “Kun-ku xayrli o‘tdi. Tunni yaxshi o‘tkazib olaylik-da. ...Odatda qo‘ylar kechki payt ko‘p qo‘zilaydi. Kechani qo‘rada o‘tkazmasam bo‘lgani”, dedi o‘ziga o‘zi g‘udranib.

Xotini uzatgan qaynoq choydan ichib, ichiga issiq kirdi. Pechkaning tafti elitib, ko‘ziga uyqu keldi. Yonboshlab, kun davomida bolalagan sovlqlarni sanadi. Yigirmadan oshibdi. Qo‘zilash mavsumida cho‘pon tinim bilmaydi. Ayniqsa, tun sovuq‘ida qo‘zini asrash osomas. Mabodo biror sovlqli bolasiga qaramay qolsa, yana tashvish.

Shu zayil uxlab qolgan Parda cho‘pon itning tovushidan uyg‘ondi. Shoshib tashqariga chiqdi. Allaqachon qorong‘ilik jihatdan boshlagan osmondan laylakqor o‘yinoqlab tushardi. Demak, qor tez tinadi. Bulutlar tarqalib, osmon

ochilsa, ayoqning zo‘ri shunda bo‘ladi. Shu payt qo‘ra tomondan fonus yorug‘i ko‘rindi. Demak, xotini o‘g‘li bilan qo‘zilardan xabar olgani borgan. Cho‘pon g‘arch-g‘urch qadam bosib, tizza bo‘yi qorda iz qoldirgancha, ildamlab

unga yordamlashar, kalishi bilan qor kechib, tinim bilmadi. Aksiga olib, devorga osig‘liq soat millari juda sekin yurayotgandek...

Xayriyat, tun talafotsiz o‘tdi. Uyqusizlikni aytmasa, barchasi yaxshi... Cho‘pon oilasi tongga yaqin bir oz dam oldi.

...Bu yilgi ko‘klam yaxshi keldi. Yomg‘irli kunlar ko‘p bo‘ldi. Bepoyon G‘uzor cho‘li yashillikka burkandi. Qishdan omon chiqqan chorva bahorda yayradi. Qishda egiz qo‘zilab, oriqlagan sovlqlar o‘zini o‘ngladi. Sutga to‘ygan qo‘zilar cho‘pon bolalari bilan quvishmachoq o‘ynaydigan bo‘ldi... Kun qiziy boshlagach, chorvani ko‘chirish payti keladi. Vaqtda joyni o‘zgartirmasa, bu atrofda o‘t-o‘lanni suruv tez yeb bitiradi. Parda cho‘pon toqqa qo‘chish vaqti kelganini anglab, xo‘jalik rahbariga xabar yuboradi. Ikki kun o‘tib, yuk mashinasi qo‘ton oldiga yetib keladi. Cho‘pon kerakli narsalarini ortib, oilasini ham mashinaga chiqarib, toqqa jo‘natdi. O‘zi ikki-uch cho‘lig‘i bilan “Qaydasan, Maydanak tog‘lari”, deya suruvni oldiga solib yo‘lga tushdi. Ular kamida bir hafta yo‘l yurishi kerak...

Odatdagi kunlarning birida suruvni o‘tlatib yurgan cho‘pon katta toshga yelka tirab, hordiq chiqardi. Yaqinida yurgan qo‘zilarning kiti-kiti o‘t chaynashi unga zavq beradi. Shu zayil toshga boshini qo‘ygan cho‘ponning ko‘zi ilindi. Bir payt gurr etib suruv bir tomonga qarab qochdi. Cho‘purr uyg‘ongan cho‘pon o‘midan turishi bilan o‘parasida turgan katta ko‘k yoldor bo‘riga duch keldi. Jondorga ilgari ham ko‘p duch kelgan. Ammo ilk bor yaqindan ko‘rishdi edi. Ikki qadam narida ko‘zlar to‘qnashdi. Bo‘ri irillab, raqibiga tashlanishga tayyor turardi. Cho‘ponning qo‘lida tayog‘idan boshqa qurol yo‘q. Shu paytda itlar ham qayergadir yo‘qolgan. Chaqiray desa, ovozi chiqmaydi. Ortiqcha harakat bo‘rining g‘ashini keltirishi aniq. Shu dam oyog‘i tagida turgan kichik tosh pastga dumaladi. Raqib shundanmi, yo boshga sabab tufaylimi, o‘zini cho‘ponning ustiga otdi. Buni oldindan sezgan cho‘pon tayog‘ini ikki qo‘llab ushlagancha, yoldorni ustidan oshirib yubordi. Bo‘ri uch-to‘rt metrchga pastga tushdi. O‘zi ham yonboshga ag‘darildi. Qo‘liga ilashgan qirra toshni olib, sapchib turdi. Xayriyatki, kerakli paytda Bo‘ynoq yetib kelgandi. U jondorni mahkam bosib turardi. Ko‘p o‘tmay, qolgan itlar ham yetib keldi. Cho‘pon tarqalib ketgan otarni yig‘ish harakatiga tushdi. Holatdan xabar topgan yordamchilar hozir bo‘ldi.

Parda cho‘ponning otasi Boymir bobo o‘z davrining tajribali chorvadori edi. Bir necha

yillar xo‘jalikning qo‘yini boqib, cho‘ponlarga boshchilik qilgan. Har yili rejani ortig‘i bilan bajaradigan cho‘pon farzandlarini halol rizq bilan voyaga yetkazdi.

Parda cho‘pon qo‘liga tayoq olib, otasiga ergashganida endigina 5-sinfni tugatgan edi. “Kichkina cho‘liq” degan nom olgan Parda qo‘zilar bilan quvishib o‘ynashni yaxshi ko‘rardi. O‘sha vaqtlarda u otasining savoliga javoban, kelgusida katta cho‘pon bo‘lish niyatida ekanini aytgandi.

U maktabni tugatgach, dastlab amakisi Namoz akaga cho‘liq etib tayinlandi. Astoydil ishga kirishib, chorvadorlik sirini puxta o‘zlashtirishga harakat qildi. Qaysi vaqtda sug‘orish, tunning qaysi mahali o‘tlatish zarur, xullas, barchasini diqqat bilan kuzatib borardi. Oradan to‘rt yil o‘tib, unga ustoz va otasi tayog‘ini ishonib topshirdi. O‘shanda qorako‘lchilik xo‘jaligi qo‘ylarini boqish mas‘uliyati ham Parda cho‘ponga o‘tdi. Aynan G‘uzor tuman cho‘lidagi Toshterma hududida joylashgan butun qo‘raga o‘zi boshchilik qiladigan bo‘ldi. Yoniga cho‘liqlar olib ishga kirishdi. Dasht kezib, suruvni ko‘paytirish uchun harakat qildi. Jaziramada Maydanak tomon yo‘l olib, salqinda suruvni o‘tlatdi. Sovuq kunlar boshlanishi bilan qishlov qo‘rasiga yo‘l oldi. Bu orada oila qurib, turmush o‘rtog‘i Nortoqibibi bilan birga kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qildi. Tunlari bedor o‘tgan damlarda bir-biriga dalda bo‘ldi. Yaxshi kunlar kelishi haqida orzu qildi. Qiyinchiliklarga bardosh berdi. Biror marta xo‘jalik haqiga xiyonat qilmadi. Aksincha, ishonchni oqlash niyatida bor kuchi bilan ishladi. Shu cho‘l bag‘rida halol odamligi bilan elga tanildi. Kasbi ortidan uch o‘g‘il, bir qizni voyaga yetkazdi. Uyli-joyli qildi. Bugun chol-kampir nabiralarning sevimli boshbuvisiga aylangan. Yashni oltmishdan osagan bo‘lsa-da, Parda Normurodov hamon suruv ortidan qolgani yo‘q. Dala-dashtga chiqqanida huzurlanadi. Kengliklarga boqib, bolaligini topganday bo‘ladi.

— Mana shu dashtdan kuch-quvvat olaman. Yaratganga shukr, yurtimiz tinch. Birovdan kam joymiz yo‘q, — deydi Parda cho‘pon. — Shuning ortidan turmushimiz farovon. Bolalarim qabatinga kirib, ko‘mak beryapti. Ota-bobalarimiz hamisha halol bo‘lishni uqtirgan. Shuning uchun biror marta birovning haqiga qo‘l uzatmadim. Bugun kamtarona mehnatimizni Prezidentimiz yuqori baholab, mukofotlaganini boshim ko‘kka yetdi.

Biz ordenli cho‘pon bilan xayrlashib, mashinaga chiqqanimizda qo‘limiz izg‘irindan titardi. Tezroq isinish harakatiga tushdik. Lekin Parda cho‘pon sovuqni pisanad etmay, mamnun holda bizni kuzatib turardi. U yillar davomida mana shu dashtning issiq-sovuq‘ida obdan toblangan, huv o‘sha o‘tmish kishilari aytganiday, tuyodqan ham qattiq, chayir bo‘lib ketgan. Istalgan vaqtda shahar, hech bo‘lmasa, qishloqga ko‘chib ketishi mumkin. Ammo bunday qilmaydi. Chunki u qo‘ylarini, butun umri o‘tgan mana shu dashtni, Vatanini yaxshi ko‘radi.


Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

**Agroturizm**



Ko‘lbo‘yi mahallasi uzum yetishtirish va saqlashda o‘ziga xos tajribaga ega. Har bir hovlining ishkomi bor. Mahalla ahli uzum pishig‘igacha hosil saqlash hadisini olgan. Odamlarning bu boradagi izlanishi va mahoratiga qoyil qolasiz.

TO‘RT FASLDA HAM UZUM ARIMAYDIGAN XONADON



Husanboy G‘afurov uzumchilar sulolasining beshinchi avlodi. Bu xonadonda qish chillasida ham yangi uzilgandek bandi ko‘m-ko‘k holda saqlanayotgan uzumlarni ko‘rib bahri dilingiz ochiladi. Bir piyola choyga taklif etilgan mehmon oldiga to‘rt faslda ham uzum qo‘yiladi. Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, oltiariqlik bog‘bon Husanboy G‘afurov “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Ana shu mashhur uzumchilar xonadoniga keldik. Dekabrning yomg‘irli havosi etni junjiktiradi. Fayzli xonadon tomorqasida marjondek osilib turgan uzumlarni sovuqdan asrash maqsadida ustiga plyonka tortilib, qog‘oz bilan o‘rab qo‘yilgan. Boshingizga tegay-tegay deb turgan sarxil mevalar ko‘zingizni oladi, osmon uzumlar bilan qoplangandek go‘yo.

— Uzumni keyingi yil hosili pishguncha saqlaymiz, — deydi Husanboy aka. —

Saqlashning uch usuli bor. Birinchisi — uzumni tokdan uzmay, sovuq ob-havodan himoya qilish. Ikkinchisi — maxsus qutilarga joylab, an’anaviy usulda, uy sharoitida saqlash. Hozir uzum eng ommalashgan usulda, ya’ni plastik idishlarda saqlanadi. Keyingi yillarda bu usul ancha ommalashdi. Bunda pishgan uzum kaltagi bilan kesib olinib, plastik idishdagi suvga solib qo‘yiladi. Natijada uzum uzoq vaqt mazasi va ko‘rinishini yo‘qotmaydi. Lekin hamma uzumni ham shu tarzda saqlab bo‘lmaydi. Shu bois, “Kelinbarmoq”, “Husayni”, “Mercedes” navli uzumlarni nol darajadan past bo‘lmagan sharoitda saqlash har jihatdan foydali. Yerga mehr bergan odam aslo kam bo‘lmaydi. Tomorqadan kelgan daromad hisobiga besh farzandimni uyli-joyli qildim.

Xonadonda uzum saqlashga moslashgan maxsus omborxona qurilgan. Har bir xonada 500 kilogrammdan 2,5 tonnagacha uzum saqlash imkoniyati bor. Bog‘bonning